

MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH USULLARI

Yaxshiboyev Mirvohid Gulboy o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy
fanlar fakulteti Yurisprudensiya: biznes
huquqi yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

[Tel:+998930600316](tel:+998930600316)

e-mail:yaxshiboyevmirvohid@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada intellektual mulk huquqi doirasiga kiruvchi mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash, mualliflik huquqini himoya qilishda blokcheyn texnologiyasini qo'llashning ahamiyati haqida so'z boradi. Mualliflik huquqini muhofaza qilishda qo'llanilayotgan texnologiyalar, ularning hozirgi ahamiyati, mavjud kamchiliklar xorijiy tajriba asosida samarali muhofaza qilish borasida so'z yuritiladi. Blokcheyn texnologiyasining ishlash mexanizmidan kelib chiqqan holda turdosh huquqlarning ham muhofazasi haqida bevosita so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: *mualliflik huquqi, huquq egasi, muallif, mutlaq huquqlar, buyurtmachi, nashr etish, blokcheyn, poor man's copyright.*

ABSTRACT

This article discusses the importance of using blockchain technology in ensuring copyright protection within the scope of intellectual property rights, and the protection of copyright. The technologies used in copyright protection, their current importance, and existing shortcomings in effective protection based on foreign experience are discussed. Based on the mechanism of operation of blockchain technology, the protection of related rights is also directly discussed.

Keywords: *copyright, copyright holder, author, exclusive rights, customer, publishing, blockchain, poor man's copyright.*

KIRISH

Butun dunyo miqyosida intellektual mulk, shuningdek uning tarkibiy qismi sanalgan mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash, uning himoyalanganlik darajasini kuchaytirish iqtisodiy taraqqiyot hamda mamlakatni investitsion jozibadorligini oshirishning muhim kafolatlaridan sanaladi. Shu boisdan ham keyingi yillarda barcha davlatlarda mualliflik huquqini himoya qilish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu ijodkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda mualliflik haqini adolatli tartibda to'lanishiga

erishish, asarlardan ruxsatsiz foydalanish, ularning o'zlashtirilishi oldini olish va bunday holatlarga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini kuchaytirish hamda internet tarmog'ida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlash zaruratining kuchayib borayotganligidan dalolat beradi. Dunyoning turli mamlakatlarida mualliflik huquqining muhofazasini ta'minlashga doir zamonaviy huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Fuqarolik huquqi professorlari tomonidan intellektual mulk huquqi ikki yirik guruhga, ya'ni: sanoat namunalari hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga bo'linishi ta'kidlanadi. Mualliflik huquqi – bu O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'grisida” gi Qonunda ko'zda tutilganidek, fan, adabiyot va san'at asarlarini (mualliflik huquqi), ijro, fonogramma, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlarini (turdosh huquqlar) yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.¹ Mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarga misol sifatida asl badiiy asarlar, filmlar va ovoz yozuvlarini ko'rsatish mumkin.

Asar muallifi bu uni yaratgan shaxsdir, masalan, adabiy asar muallifi uni yozgan shaxs, musiqiy asar muallifi uni bastalagan kishi bo'ladi. Mualliflik huquqining egasi asarga nisbatan muayyan harakatlar qilish, masalan, nusxa ko'chirish, efirga uzatish yoki nusxalarini ommaga sotish kabi mutlaq huquqlarga ega. Bular mualliflik huquqi bilan himoyalangan faoliyat namunalari. Mualliflik huquqi egasi asardan foydalanishni, masalan, nusxalarini tayyorlash yoki nusxalarini ko'pchilikka sotish yoki boshqa shaxsga to'lov evaziga amalga oshirishga ruxsat berish orqali boshqarishi mumkin. Misol sifatida, yozuvchi asarini biror nashriyotga o'z asarining nusqalarini sotishga ruxsat etishi, nashriyot esa kitoblar narxiga belgilangan foizlarni to'lashi mumkin.

Biror shaxs mualliflik huquqi egasining ruxsatsiz yoki litsenziyasiz mualliflik huquqi bilan cheklangan harakatlardan birini amalga oshirsa, ikkinchisi uning mualliflik huquqini talab qilishi va qonuniy himoya choralarini ko'rish mumkin: masalan, zararni undirib olish va sud tomonidan taqiq qo'yish. Biroq ishga adolatli munosabatda bo'lish kabi cheklovlar va ba'zi aniq belgilangan istisnalar mavjud bo'lishi mumkin. Prinsipial va konseptual jihatdan mualliflik huquqi qonunchiligi monopoliyani keltirib chiqarmasligi kerak va har qanday shaxsga, oldingi ishlarga o'xshash asarni yozish uchun yoki ishlab chiqarishga ruxsat beriladi. Agar amaliyotda ikki kishi mustaqil ravishda bir xil asar yaratishi dargumon bo'lsa ham,

¹ Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 20.07.2006 yildagi O'RQ-42-son
<https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

lekin nazariy jihatdan ushbu hodisa sodir bo'lishi mumkin, ularning har biri mualliflik huquqi uchun o'z asarining muallifi deb hisoblanadi. Misol sifatida aytish mumkinki, ikkita bir xil rassom Amir Temur rasmini bir yerda turib chizdi, ular bir xil joydan bir xil Amir Temur haykaliga qarab chizganligi uchun deyarli ajratib bo'lmasligi mumkin, ammo mualliflik huquqida har ikkala rasm ularning shaxsiy mahorati, o'z tajribalarining asosidir va ikkalasi ham boshqa shaxslarning o'zlarining fotosuratlaridan nusxalar olinishiga to'sqinlik qilish huquqiga ega.

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida” gi Qonunda badiiy asarga mualliflik huquqi muallif vafot etgan taqvim yili tugaganidan 70 yil o'tgunga qadar saqlanib qoladi, inglizlarda ham bu huquq 70 yil. Shunday qilib mualliflik huquqi muallifning umridan keyin yana 70 yil davomida saqlanib qoladi. Ushbu vaqtincha himoya muddatini tugashi ishning g'oyalarini bloklamasligi bilan asoslanishi mumkin. Asarga bo'lgan egalik huquqi ko'pincha asar muallifiga tegishli bo'lib, asar mohiyatiga qarab uni yaratgan yoki uni yaratishga zarur tayyorgarlik ko'rgan shaxs muallif hisoblanadi. Ammo, agar adabiy, dramatik, musiqiy yoki badiiy asar bir xodim tomonidan yaratilgan bo'lsa, uning ish beruvchisi kelishuvga binoan u asarning egasi hisoblanadi. Bundan tashqari, mualliflik huquqi, boshqa mulk shakllari kabi vasiyatnoma yoki qonun bo'yicha berilishi mumkin va unga nisbatan litsenziyalar ham berilishi mumkin. Mualliflik huquqi subyektlari orasida, birinchi navbatda, asar muallifi (shu jumladan, yakka yoki hammualliflik asosida) ajralib turadi. Bunda asarning asl nusxasida yoki boshqa nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa uning muallifi hisoblanadi. Mualliflik huquqining subyektlari asl va hosilaviy turlarga bo'linadi. Mualliflik huquqining dastlabki subyekti har doim eksklyuziv mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lgan fuqaro (shaxs) hisoblanadi. Asarni (yoki ish beruvchini rasmiy asariga) har qanday shaklda va har qanday usulda ishlatishga bo'lgan huquq muallifning mulkiy huquqlaridir. Muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega. “Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunning 19-moddasiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslar ushbu qonunda ko'rsatilganidan tashqari hollarda asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan, shu jumladan, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan yoxud ular bo'lmagan taqdirda bu tashkilotlarning vazifalari va majburiyatlarini bajaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin. Muallifning mutlaq huquqlari uning mulkiy huquqlari deb ataladi, chunki kimning haqini, daromadini yoki foydasini olishidan qat'i nazar, asardan foydalanish har doim ma'lum mulkiy foyda keltiradi. Shu bilan bir qatorda,

muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari ham mavjud bo'lib, ushbu huquq faqat va faqat muallifga tegishli bo'lib, uning uzviy huquqi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar, unga tegishli bo'lib, asardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlar boshqa shaxsga o'tkazilgan taqdirda ham uning o'zida saqlanib qoladi. Shuningdek, muallifning o'z shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirishdan voz kechish to'g'risida biron-bir shaxs bilan kelishuvi va bu haqdagi arizasi o'z-o'zidan haqiqiy emas hisoblanadi. Yana shuni aytishimiz mumkinki, mualliflik huquqini muhofaza qilish, mutlaq huquqlarning ta'minlanishi intellektual mulk siyosatining dalzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday ijodkor inson o'z aqliy (ijodiy) mehnati mahsuli yuzaga chiqishi, ommaga taqdim etilishi, jamoatchilik undan keng foydalanishi hamda tegishli haq olishni xohlaydi. Bu jarayonda esa yaratilgan tegishli intellektual mulk obyektiga nisbatan bo'lgan muallifning mutlaq huquqlari muhofazasi va himoyasi bilan bog'liq masalalar vujudga keladi.

Hozirgi kunda uchinchi shaxslar tomonidan intellektual mulk obyektlaridan ongli ravishda egasining roziligisiz foydalanish holatlari ko'p uchraydi. O'z navbatida, muallif huquqlarining poymol etilishi unga nafaqat moddiy balki ma'naviy ziyon ham yetkazishi mumkin. Zamonaviy dunyoda ilm-fanning turli soha ijodkorlari ko'payishi bilan bir qatorda ularning intellektual mulk obyektlariga nisbatan mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash bilan bog'liq masalalar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, bu adabiy, badiiy va san'at asarlari yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining jadallik bilan rivojlanishi mualliflik huquqi obyektlarining keng ko'lamda foydalanish imkoniyatini oshirdi. Ushbu holatlarning oldini olish va asarning nusqasiga nisbatan mualliflikni tasdiqlashning bir qator usullari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Muallif o'zi yaratgan asarini o'ziga rasmiy elektron pochta orqali yuborishi (Poor Man's Copyright) Bu usulni o'z navbatida quyidagicha tasniflash mumkin, ya'ni muallif o'zining asar nusxasiga sanani qo'yib, uni imzolaydi va pochta orqali o'ziga jo__natadi. Qabul qilingan konvert ochilmaydi. Agar nizo yuzaga kelsa, pochta markasi ish yuborilgan sanadan oldin yaratilganligini tasdiqlaydi. Pochta orqali muallifning o'z asarini o'ziga yuborish usuli qog'ozga tushiriladigan yoki diskka yoziladigan ishlarga mos keladi. Ammo mazkur tasdiqlash usuli ham nizoli hisoblanib, agar mualliflik huquqini faktini tasdiqlash yuzasidan nizo kelib chiqsa hamda u sudda ko'riladigan bo'lsa, suddagi qarshi tomon konvert ochilgan yoki pochta markasi soxta deb o'z fikrlarini bayon etishi mumkin.² Bir so'z bilan aytganda,

² Bowker, R.R. (1912) Copyright: Its History and its Law, Houghton Mifflin. -P.26

protsess ko'p muddatni talab qilishi mumkin. Qolaversa, ta'kidlash joizki asl mualliflik asari aniq ifoda vositasida belgilangan paytdan boshlab mualliflik huquqi bilan himoya qilinadi. Shu bilan bir qatorda, AQSH davlat qonunchiligida asarning yaratilganlik faktini belgilash uchun alohida qoida o'rnatilgan bo'lib, AQSH davlatining Mualliflik to'g'risidagi qonunning 411 moddasiga asosan, AQSH Mualliflik huquqi idorasining mualliflik huquqini ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasi (yoki guvohnomani berishni rad etish) federal sudga mualliflik huquqining buzilishi to'g'risidagi da'voni topshirish uchun zaruriy shartdir. AQSH qonunchiligiga asosan, asaringizning nusxasini o'zingizga yuborish sizning mualliflik huquqingizni AQSH Mualliflik huquqi idorasida ro'yxatdan o'tkazish o'rnini bosa olmaydi, ya'ni mualliflik huquqini tasdiqlamaydi. Biroq, "Poor Man's Copyright" ga qo'yilgan pochta markasi huquqbuzarlik to'g'risidagi da'vodagi ijodkor uchun ma'lum bir qiymatga ega bo'lishi mumkin, chunki u asarning ma'lum bir sanada mavjud bo'lganligini isbotlash yoki asarning avval mustaqil ravishda yaratilganligini ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Mualliflik huquqini ro'yxatdan o'tkazish Bern konvensiyasi qoidalarida belgilanmaganligi, ya'ni mualliflik huquqini tasdiqlash uchun uning muayyan davlat organidan ro'yxatdan o'tkazishning talab etilmasligi to'g'risidagi normaga qaramasdan, AQSH mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchiligining o'ziga xos xususiyati sifatida qarashimiz mumkin.

Bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida asarni nashr/chop etish; Elektron ommaviy axborot vositalarida asar yoki u haqidagi ma'lumotlarni o'z nomi ostida chop etish ham mualliflikni tasdiqlashning bir usuli sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, nashr etish bu muntazam jurnallar tarmoq versiyalarida ham bo'lishi mumkin yoki maxsus xizmat portallarini ushbu turga kiritishimiz mumkin. Bunday xizmatda ro'yxatdan o'tish va u yerda muallifning tarkibini topish haqiqati muallif huquqlarining isboti bo'ladi. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda ham muallif tomonidan muayyan postlarning joylashtirilishi, ya'ni barchaning e'tiboriga yetkazish ham mualliflik huquqi faktini tasdiqlashga tenglashtiriladi. Bevosita, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi qonuniga asosan, barchaning e'tiboriga yetkazish — asarlarni yoki turdosh huquqlar obyektlarini simlar yoki simsiz aloqa vositalari orqali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar o'z tanloviga ko'ra istalgan joyda va istalgan vaqtda ulardan foydalana olishi mumkin bo'lgan tarzda barchaning e'tibori uchun yuborishdir.

Asar nusxasini notarial tartibda tasdiqlatish. Ishni notarial tasdiqlash shuni anglatadiki, notarius materiallarni taqdim etish sanasini tasdiqlaydi, ularning nusxasining to'g'riligini tasdiqlaydi va asaringiz nusxasida sizning imzoingizni

tasdiqlaydi. Shuningdek, notarius internet tarmog'ida yuklangan asar sahifasini tekshirish bayonnomasini tuzishi mumkin. Protokol ma'lum bir sanada asarning mavjudligini va veb-saytda ko'rsatilgan muallifning ismini tasdiqlaydi. Saytni tekshirish protokolining mavjudligi sudda nizoni hal qilishda, hatto tekshirilgan saytdan materiallarni olib tashlashda ham dalil sifatida yordam berishi mumkin. Asar notarius tomonidan notarial tasdiqlanganda, mualliflik huquqiga da'vo qilingan materiallar taqdim etilgan sana tasdiqlanadi, agar nusxalari mavjud bo'lsa, ularning asliga mosligini tasdiqlaydi. Aslini olganda, notarial tasdiqlashning huquqiy natijasi deponentlashtirishga juda yaqin, faqatgina farq mualliflikni har qanday notarius bilan tasdiqlatishingiz mumkinligida.

Asar nusxasini deponirovaniye va shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda deponentlashtirish. Asarni depozitga qo'yish yoki boshqa yo'l bilan ro'yxatdan o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega. Ammo agar ilgari mualliflik huquqi predmeti nusxa shaklida nufuzli fuqaroga yoki shubhasiz obro'ga ega bo'lgan muassasaga topshirilgan bo'lsa, endi depozit qilish asarning nusxasini bunday faoliyatga ixtisoslashgan tashkilotga topshirishni anglatadi. Ro'yxatdan o'tkazish (asarni deponentlashtirish) – bu asar nusxasini saqlash uchun uchinchi tomon tashkilotiga o'tkazish tartibi. Aslida, ro'yxatga olish to'g'risidagi guvohnoma (deponentlashtirish) faqat ma'lum bir vaqtda omonat uchun ariza bergan shaxs asar nusxasiga egalik qilgan va o'zini muallif sifatida ko'rsatganligini tasdiqlaydi. Biroq, deponentlashtirishda ro'yxatga olish tashkilotlari muallif tomonidan taqdim etilgan arizasida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini tekshirishmaydi. Ushbu sohadagi eng obro'li muassasalar RAO (Rossiya mualliflik huquqi jamiyati), Rossiya (sobiq Lenin) Davlat kutubxonasi, Rossiyaning "Kopirus" mualliflik huquqi jamiyati.³ Asarlarning asl nusxalari, nusxalari va birinchi nusxalarini ularga topshirish evaziga ro'yxatga oluvchilar tegishli registrarga yozuv kiritadilar va muallifga ishning mazmuni, sanasi va muallifning ismi haqidagi ma'lumotlarni qisqacha aks ettiradigan bunday haqiqatni amalga oshirganligi to'g'risida guvohnoma berishadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mualliflik huquqining mavjudligi faktorini belgilashning aynan belgilangan usuli qonunchiligimizda mavjud emas. Mazkur vaziyatda, intellektual mulk obyektlari doirasida yuqorida ta'kidlangani kabi mualliflik huquqiga blokcheyn texnologiyasining tatbiq etilishi ularning muhofazasini ta'minlashda yuksak ahamiyatga egaligiga e'tiborimizni qaratishimiz joiz. Blokcheyn texnologiyasini qo'llash mualliflik huquqini qayt etishning alternativ

³ И.Б.Якубова. Муаллифлик ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2020. – 120 б.

varianti sifatida belgilashimiz mumkin, chunki blokcheyn texnologiyasini qo'llash raqamli aktivlarni nazorat qilish imkonini yaratadi, qaysiki o'z o'rnida intellektual mulk huquqining himoyasini ta'minlashda, xususan mualliflikni hamda asarning yaratilishi bilan bog'liq jarayonlarni isbotlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Yana shuni aytish lozimki, mazkur texnologiya huquq egalariga ularga tegishli bo'lgan intellektual faoliyat natijasidan foydalanish hamda tijoratlashtirish shartlarini mualliflar tomonidan erkin belgilanishini kafolatlaydi va yaratilgan intellektual mulkning yaratilishi davrini aniq markazlashtirilmagan reyestrda qayd etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Bowker, R.R. (1912) Copyright: Its History and its Law, Houghton Mifflin. - P.26
2. И.Б.Якубова. Муаллифлик ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ наشريети, 2020. – 120 б.
2. https://e-kontur.ru/enquiry/1367/author_defence
3. <https://copyrightalliance.org/faqs/poor-mans-copyright/>
4. https://e-kontur.ru/enquiry/1367/author_defence
5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 21.08.2021 й., 03/21/709/0808-сон
6. <http://just-ace.ru/obzory/kak-zafiksirovat-avtorskoe-pravo/>
7. Пономарченко А. Е. Технология блокчейн в сфере авторского права // Legal Concept = Правовая парадигма. – 2021. – Т. 20, № 4. – С. 148–152. – DOI: <https://doi.org/10.15688/lc.jvolsu.2021.4.20>
8. Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 20.07.2006 yildagi O'RQ-42-son <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>